



24 noyabr 2017 yil

**Erasmus+ dasturi**

Erasmus+ - ta'lif, professional ta'lifni taraqqiy ettirish, yoshlarni kamolotga yetkazish va sportni rivojlantirish sohalari bo'yicha Yevropa Ittifoqining yangi dasturidir (<http://ec.europa.eu/programmes/erasmus-plus/>). Ushbu dastur yuqorida keltirilgan sohalar bo'yicha Yevropa Ittifoqi davlatlari va hamkor-davlatlar bilan hamkorliklarini rivojlantirish maqsadida moliyalashtiriladi.

Erasmus+ dasturi (2014-2020) Yevropa Ittifoqi davlatlari turli sohalarda, ayniqsa oliy ta'lif sohasida keng va chegaralanmagan hamkorlikning ahamiyatliligi bilan ajralib turadi. Ushbu dastur Yevropa Ittifoqining oliy ta'limga oid Tempus va Erasmus Mundus dasturlarining tajribasi va muvaffaqiyatiga tayanadi.

Dastur talabalar, ilmiy xodim va o'qituvchilar o'zaro almashinuvi hamda oliy ta'lif muassasalari uchun bir qator imkoniyatlarni taklif etadi.

**Erasmus+ 2018 yil tanlovi**

2018 yil uchun tanlov 2017 yilning 25 oktyabr kuni e'lon qilindi, biroq bahordan buyuon Milliy ofis tomonidan axborot kampaniyasi doirasida respublika viloyatlardagi va Toshkentdagagi OTMlarda axborot seminarlar o'tkazildi.

O'zbekiston oliy ta'lif muassasalari (OTM) uchun quyidagi hamkorlik imkoniyatlari mavjud:

1. Oliy ta'limda salohiyatni oshirish/Capacity Building in Higher Education. Loyiha takliflarini topshirish muddati - **8 fevral 2018 yil**. 2018 yil uchun Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy byudjet mablag'i 8.80 mln. yevroni tashkil etadi.
2. Kredit mobilligi/Credit Mobility - **1 fevral 2018 yil**. 2017/2018 o'quv yilidan boshlab ishlab chiqarish korxonalarida yoki tegishli soha yo'nalishlar bo'yicha Yevropadagi noakademik tashkilotlarda amaliyot o'tish imkoniyati ochildi.
3. Erasmus Mundus Qo'shma magistrlik darajalari/Erasmus Mundus Joint Master Degrees (JMP) - **15 fevral 2018 yil**.
4. Jean Monnet - **22 fevral 2018 yil**.

Loyiha takliflari uchun tanlovlар va takliflarni topshirish jarayonlari haqidagi ma'lumotlarni Ijroiya Agentligining (EACEA) web-saytida joylashtirilgan: [http://eacea.ec.europa.eu/erasmus-plus/funding\\_en](http://eacea.ec.europa.eu/erasmus-plus/funding_en).

Toshkentdagagi Erasmus+ axborot seminaridan so'ng, dasturning har bir Yo'nalishlari bo'yicha loyiha takliflarini tayyorlash metodik seminarlar tashkil etiladi. OTMlar so'roviga binoan, Tempus, Erasmus Mundus va Erasmus+ dasturlarida ishtiroy etmagan OTM o'qituvchilari va talabalari uchun alohida axborot seminarlari bo'lib o'tishi kutilmoqda.

**Axborot kunining vazifalari**

- O'zbekiston oliy ta'lif muassasalariga Yevropa universitetlari bilan hamkorlik o'rnatish mumkin bo'lgan imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot berish;
- O'zbekistonda Tempus/Erasmus+ loyihalarning erishilgan yutuqlari va respublikamiz OTMlari ishtiroyidagi birinchi tanlov natijalari bilan tanishtirish;
- Talaba va o'qituvchilarga institutsional hamkorlik va individual stipendiyalar borasida tavsiya va maslahatlar berishda Xalqaro aloqalar bo'limlarining salohiyatini mustahkamlash;
- Loyiha takliflarini ishlab chiqish va yaxshi loyiha menejmenti borasida amaliy tavsiyalar taqdim etish.

**Ishtiroychilar va tadbir o'tkaziladigan manzil**

**Ishtiroychilar:** Oliy ta'lif muassasalarning xalqaro aloqalar bo'limlar vakillari, professor-o'qituvchilar va administrativ xodimlari, soha vazirliklar va tashkilotlar vakillari, Tempus va Erasmus+ loyiha koordinatorlari va loyihalar a'zolari.

**Tadbir o'tkaziladigan manzil:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 7 korpus, 1 qavat-majlislar zali, O'zbekiston prospekti, 49, Tel. 239-01-45

## Tashkilotchilar

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi (OO'MTV), O'zbekiston Respublikasidagi Yevropa Ittifoqi Delegatsiyasi, O'zbekistondagi Erasmus+ Milliy ofisi va ekspertlar milliy guruhi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

## O'zbekiston uchun Erasmus+ 2017 yil tanlov natijalari

### Oliy ta'lifda salohiyatni oshirish

2017 yil avgust oyining boshida 2017 yil CBHE tanlov natijalari e'lon qilindi, natijalar bo'yicha respublika OTMlarning qiziqishi yanada ortganligini ko'rsatdi. 2017 yilgi tanlov uchun OTMlар tomonidan 42 loyiha takliflari topshirilgan, 2016 yilda esa 35 loyiha takliflari topshirilgan edi. CBHE 7ta yangi loyihalar O'zbekiston OTMlarda o'z ishini boshladi.

Markaziy Osiyoning 4ta davlatlari bo'yicha umumiy hisobda 14 yangi loyihalar moliyalashtirish uchun tanlab olingan, shu qatorda 7ta yangi loyiha O'zbekiston, 8ta loyiha Qozog'iston, 2ta loyiha Qirg'iziston va 1ta loyiha Tojikiston ishtiropidadir.

**2017 yil 15 oktyabrdan 9ta Toshkent va 7ta respublika viloyatlarining 11 ta OTMlari 7ta yangi loyiada ishtirop etadi**, ulardan 3 milliy loyiha (2.77 mln. yevro), 2ta loyiada Qozog'iston va Qirg'iziston bilan hamkorlikda (1.67 mln. yevro) hamda 2ta mintaqalararo loyiada Rossiya Federatsiyasi, Armeniya, Ukraina va V'etnam bilan hamkorlikda (1.97 mln.yevro) amalga oshiriladi. Shu qatorda, Yevropa Ittifoqiga a'zo 15 davlatlarning 23 universitetlari hamda 6 Hamkor-davlatlarning 15 universitelari jalb qilinadi.

Ilk marotaba Yevropa Ittifoqining universitetlari bilan uzoq muddatli hamkorlik quidagi OTMlар bilan loyihalar amalga oshiriladi: Alisher Navoyi nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti va Toshkent temiryo'l muhandislari instituti.

### Xalqaro kredit mobilligi

"Xalqaro kredit mobilligi" Yo'naliشining tanlov natijalari 2017 yil avgust oyida yakunlandi. Kredit mobilligi markazlashmagan holda amalga oshiriladi va moliyalashtirish masalalari 32 Hamkor-davatlarda (Programme countries) joylashgan Erasmus+ milliy agentligi tomonidan qabul qilinadi.

O'zbekiston OTMlardan 82ta loyiha takliflari topshirilgan bo'lib, undan 50ta loyiha moliyalashtirish uchun tanlab olindi va uning umumiy byudjeti 1 094 000 yevroni tashkil etadi. 333 kishiga mo'ljallangan mobilliklar, ya'ni O'zbekistondan-Yevropaga 229ta va Yevropadan-O'zbekistonga 104ta mobillik amalga oshiriladi. 2016 yil bilan taqqoslaydigan bo'lsak, 69ta loyiha topshirilgan bo'lsa, undan 50ta loyiha moliyalashtirilgan.

Ayni paytda barcha tanlovlar natijalari bo'yicha, ikki tomonlama almashinuv O'zbekistonning OTMlari ishtiropida 135ta loyiha amalga oshirilmoqda.

## O'zbekistonda Tempus va Erasmus+ bugungi kundagi faoliyati

Respublika OTMlarning Yevropa universitetlari bilan hamkorligining keng miqyosda amalga oshirilayotganini ta'kidlash kerak. Ayni paytda, Erasmus+ 2ta Yo'naliши bo'yicha, shu qatorda 26ta loyiha (Tempus IV dasturining 1ta loyihasi va CBHE 25ta loyihasi) va kredit mobilligining 135ta hamkorlik loyihalarida 58ta OTMlari jalb qilingan: Toshkentdan 26 OTM va 12ta viloyatdan 32 ta OTM. Yevropa Ittifoqiga a'zo 23 davlatning 90 universitetlari bilan hamkorlik olib borilmoqda.

CBHE doirasida 7ta amalga oshirilayotgan loyiha (CACTLE, ECCUM, ECAP, MODEHED, FSAMP, RENES, GREB) yangi o'quv dasturlarini, o'quv materiallarni ishlab chiqish hamda ishtirop etayotgan o'qituvchilarning malakasi oshirilishi ko'zda tutilgan.

## HEREs Milliy guruhi va TAM seminarlari

**Oliy ta'lif sohasida faoliyat yuritadigan ekspertlar milliy guruhining** (Higher Education Reform Experts-HEREs) asosiy vazifalari – respublika oliy ta'lif tizimining ravnraqi haqidagi ma'lumotlar hamda Boloniya jarayonining 48 ishtiropchi-davatlardagi oliy ta'limidagi o'zgarish va yangiliklar bilan bo'lishishdan iborat.

Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi universitetlararo hamkorlik va ikki tomonlama almashinuvdan tashqari, texnik seminarlarni o'tkazish bo'yicha missiya (Technical Assistance Mission-TAM) ham amalga oshiriladi va u yevropalik professor va ekspertlar ishtiropida aniq mavzuga bag'ishlangan seminarlar tashkil etilishga qaratilgan. So'nggi 2 yil davomida 9 TAM seminarlari tashkil etildi (Qozog'istonda bo'lib o'tgan 1 TAM qo'shgan holda) va ular kredit-modul tizimi, nolningistik yo'naliшlar uchun inglis tili bo'yicha dars o'tish uslubiyoti, doktorantura, ta'lif sifati, ta'lif natijalari, kvalifikatsiya tizimlari va boshqa mavzularni qamrab oлган.

Milliy guruh tashabbusiga ko'ra, bir necha yildan buyon oliy ta'lifning dolzarb masalalariga oid "**Oliy ta'lif rivojlanish istiqbollargi**" nomli maqolalar to'plami nashr etib kelinmoqda. Navbatdagi 5-chi to'plam 2017 yil 5 dekaber kuni Samarqandda bo'lib o'tadigan yakuniy anjumanda namoyish etiladi, so'ng [www.erasmusplus.uz](http://www.erasmusplus.uz) web-saytida joylashtiriladi. Shuningdek, milliy guruh tashabbusiga ko'ra, 2017 yil 6 dekabr kuni "Erasmus+ Xalqaro kredit mobilligi: ta'lif sifatini oshirishdagi o'rni va ilmiy tadqiqotlar" mavzusida ilk bor ilmiy-amalii anjuman tashkil etiladi.

